

TABIIY FANLAR NAZARIYASI VA METODIKASINI O'QITISH JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Bozorova Sevinchgul

Qarshi davlat universiteti, boshlang'ich ta'lim, 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20228442>

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida fanlararo integratsiyani takomillashtirish metodikasi tahlil qilinadi. Integratsiyalashgan ta'limning nazariy asoslari, pedagogik ahamiyati hamda amaliy usullari yoritilgan. Shuningdek, dars jarayonida turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: fanlararo integratsiya, tabiiy fanlar, boshlang'ich ta'lim, metodika, pedagogik texnologiyalar, kompetensiya

Аннотация: В данной статье анализируется методика совершенствования межпредметной интеграции в процессе преподавания естественных наук учащимся начальных классов. Освещаются теоретические основы интегрированного обучения, его педагогическое значение и практические методы. Также рассматриваются вопросы развития знаний, навыков и компетенций учащихся посредством обеспечения взаимосвязи между различными учебными предметами в ходе урока.

Ключевые слова: межпредметная интеграция, естественные науки, начальное образование, методика, педагогические технологии, компетенция

Abstract: This article examines methods for improving interdisciplinary integration in teaching natural sciences to primary school students. The theoretical foundations, pedagogical significance, and practical approaches of integrated learning are discussed. Special attention is given to enhancing students' knowledge, skills, and competencies through the connection of different subjects.

Keywords: interdisciplinary integration, natural sciences, primary education, methodology, pedagogical technologies, competencies

Kirish

Zamonavoy ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni real hayotga tayyorlash va kompleks bilimlar bilan qurollantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda atrof-muhit haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantirish uchun fanlararo integratsiyaga asoslangan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy fanlar (tabiatshunoslik, biologiya elementlari, geografiya asoslari) o'z integratsiyalashgan holda o'qitish o'quvchilarning bilimlarni yaxlit holda qabul qilishiga yordam beradi. Fanlararo integratsiya o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi - boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda fanlararo integratsiyani takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish va asoslab berishdir.

Asosiy qism

1. Fanlararo integratsiyaning nazariy asoslari

Fanlararo integratsiya nimaligini bilishimiz kerak. Fanlararo integratsiya - bu turli fanlar mazmunini o'zaro bog'lash orqali o'quvchilarda yaxlit bilim tizimini shakllantirish jarayonidir. Ushbu yondashuv quyidagi pedagogik tamoyillarga asoslanadi:

1. tizimlilik va izchillik 2. uzviylik va bog'liqlik 3. amaliy yo'naltirilganlik 4. o'quvchiga yo'naltirilganlik

2. Integratsiya natijasida o'quvchilar

1. bilimlarni chuqurroq o'zlashtiradi 2. turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunadi 3. Muammoli vaziyatlarni kompleks hal qilishni o'rganadi.

3. Boshlang'ich ta'limda integratsiyaning ahamiyati

Boshlang'ich sinf o'quvchilari atrof-muhitni yaxlit holda qabul qiladi. Shu sababli alohida fanlar kesimida berilgan bilimlar ularning ongida to'liq tizim hosil qilmasligi mumkin.

Integratsiyalashgan ta'lim: 1. o'quvchilarning qiziqishini oshiradi 2. darslarni jonli va samarali qiladi 3. bilimlarni hayot bilan bog'lash imkonini beradi

Masalan: 1. tabiat mavzularini o'rganishda matematika (hisoblash), ona tili (matn tuzish), 2. tasviriy san'at (rasm chizish) bilan integratsiya qilish mumkin

4. Fanlararo integratsiyani amalga oshirish metodlari

Boshlang'ich ta'limda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi: a) Integratsiyalashgan darslar Bir darsda bir nechta fan elementlarini uyg'unlashtirish orqali o'qitish. b) Loyihaviy ta'lim (Project-based learning) O'quvchilarni muayyan mavzu bo'yicha mustaqil izlanishga yo'naltirish. c) Muammoli ta'lim Real hayotiy vaziyatlar asosida savollar qo'yish va yechim topish. d) O'yin texnologiyalari Didaktik o'yinlar orqali bilimlarni mustahkamlash.

5. Integratsiyani takomillashtirish yo'llari

Fanlararo integratsiyani rivojlantirish uchun quyidagilar muhim: 1. o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish 2. zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish 3. darslik va o'quv dasturlarini integratsiya asosida takomillashtirish 4. axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash

Shuningdek, STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) integratsiyaning zamonaviy shakli sifatida muhim o'rin tutadi.

Xulosa

Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitishda fanlararo integratsiya o'quvchilarning bilimlarini yaxlit shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'ladi, balki ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Integratsiyalashgan ta'lim metodikasi dars samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning faolligini kuchaytiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Shu bois, zamonaviy ta'lim tizimida fanlararo integratsiyani keng joriy etish dolzarb vazifalardan biridir. Kelajakda ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish, yangi metod va texnologiyalarni ishlab chiqish boshlang'ich ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

References:

1. Yo'ldoshev J.G. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent, 2019
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020
3. Tursunov S.T. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent, 2018
4. Dewey J. Experience and Education. – New York, 1938
5. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978
6. Piaget J. The Psychology of the Child. – Basic Books, 1969